1. *G`g` harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*
*2. G`udda so'zining chizmasidan [g`] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.*
*3.Berilgan namunadan bosma G`g` harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan o'zingiz yozing.*
*4.So`zlarni avval nuqtalar yordamida so`ng mustaqil yozing.*
*5.Bo`sh katakka berilgan harflar orasidan mosini qo`yib yozing.*
G`oya, soya, g`alla, palla, pilla, tilla, bog`, tog`, yog`, sog`, dog`...




**Darsga yakun yasash:**

*-Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
*-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*
*-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo`ldi?*
*-Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaldingiz?*

**46-mavzu: [g`] tovushi. G`g` harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar**
**Dars maqsadi**:
- [g`] tovushining talaffuzi va G`g` harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [g`] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** [g`] tovushi ishtirokidagi so`zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.
**Didaktik materiallar:** rasmli va bo`g`inli kartochkalar, kesma harflar

## Darsning borishi:

### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Bo`g`inlab ayting mashqi: O‘qituvchi doskaga karam, stol, kitob, guldon, g`oz, kapalak rasmi qo`yiladi. O`quvchilardan rasmlarni ifodalovchi so`zlarni bo`g`inga bo`lib aytishni so`raydi.
*-Bugun siz bilan “Bo`g`inlab ayting”mashqini o‘tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi so`zlarni bo`g`inga bo`lib ayting.*

## Asosiy qism (40 daqiqa)

**1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)**

**Harflar tasmasidan o’tilgan harflar esga olinadi.**

***Darslikda berilgan rasm asosida so`z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.***
Rasmdagi bog`liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so`zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.
G`ildirak- 3 bo`g`in , 1- bo`g`in –g`il, 2-bog`in –di, 2-bog`in –rak
chizmada



Qolgan so’zlar qatorlarga bo’lingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda o’quvchilar berilgan so’zning chizmasini chizadilar . Har bir qatordan vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan o’quvchilar tekshirib oladilar:
1-qator: tog`
2-qator: g`oz
3-qator: bug`doy

**Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)**
**Ko‘rsatkichlar yordamida so‘zlar o‘qiladi.**

O`xshash bo`g`inli so`zlarni o`qilishi va so`zlar ma’nolari tushuntiriladi.
G`o-lib,  g`o-yib

1. *So`zlarni ketma-ket o`qing.*
2. *Tez aytishni tez-tez o`qing.*
   G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

   O‘quvchilar tez aytishni mashq qilishadi.

3. *”G`alaba” matnini o`qing.*
   *Matn yuzasidan suhbat o’tkaziladi*

G‘u-lom bi-lan Mar-g‘u-ba sport-ni yoq-ti-radi-lar. G‘u-lom boks, Mar-g‘u-ba e-sa gim-nasti-ka to‘-ga-ra-gi-ga qat-nay-di. U-lar bu yil-gi mu-so-ba-qa-ga ko‘p tay-yor-gar-lik ko‘r-di-lar.

Darslik


Rasmga qarang. G‘ harfi qatnashgan so‘zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

| | | |
|---|---|---|
| g‘arb | lag‘-mon | g‘a-ro-yib |
| g‘arq | g‘am-gin | g‘a-ni-mat |
| g‘am | sog‘-lom | g‘al-la-kor |

Tez aytish
G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

G‘alaba

G‘u-lom bi-lan Mar-g‘u-ba sport-ni yoq-ti-ra-di-lar. G‘u-lom boks, Mar-g‘u-ba e-sa gim-nas-ti-ka to‘-ga-ra-gi-ga qat-nay-di. U-lar bu yil-gi mu-so-ba-qa-ga ko‘p tay-yor-gar-lik ko‘r-di-lar. Mu-so-ba-qa ya-ku-ni-da u-lar g‘o-lib-lik-ni qo‘l-ga ki-ri-tib, g‘a-la-ba bi-lan uy-ga qayt-di-lar.

Mu-so-ba-qa ya-ku-ni-da u-lar g‘o-lib-lik-ni qo‘l-ga ki-ri-tib,g‘a-la-ba bi-lan uy-ga qayt-di-lar.

**Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)**

1. *Harflardan bo`g`inlar jadvalini tuzib, yozing.*




2. *Chiziq bo‘ylab harakatlaning. Harflar o‘rnini o‘zgartirib, so‘z tuzing.*




*(g`udda, tog’ora)*

3. *Rasmlarga qarang. Nomlarida [ g‘ ] tovushi ishtirok etganlarini bo‘yang.*

**Darsga yakun yasash:**

-*Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*
-*Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?*
-*Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?*

**47-mavzu: [h] tovushi. Hh harfi**
**Dars maqsadi**:
- [h] tovushining talaffuzi va Hh harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [h] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so’zlardan [h] harfining o‘rnini aniqlashni o‘rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
-[h] tovushi ishtirok etgan so`z va gaplarni o`qishni o`rganadilar.

**Tayanch so‘zlar:** xushmuomala so`zlari, [h] tovushi
**Didaktik materiallar:** rasmli kartochkalar,

## Darsning borishi:

## I.Kirish qismi (5 daqiqa)

### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O‘quvchilardan bugungi kun sanasi so‘raladi.